

## 2018yil yanvar-may



Viloyatda tashqi savdo aylanmasi 2018 yil yanvar-may oylarida 522,3 mln. AQSh dollarini, shu jumladan eksport 111,3 mln. AQSh dollarini va import 411,0 mln. AQSh dollarini tashkil qildi. Tashqi savdo aylanmasi saldosı –299,8 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

Oxirgi yillarda viloyatning eksport tarkibida tovarlar va xizmatlar guruhları bo'yicha o'sish kuzatilmoqda.

Mashina va asbob-uskunalarining eksporti o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,3 martaga oshib, qora va rangli metallar eksporti esa 3,0 foizga o'sdi.

Meva-sabzavot mahsulotları eksporti 43,9 mln. AQSh dollari tashkil etib, oziq-ovqat mahsulotları eksport hajmining 80,1 foizini tashkil etdi.

Viloyatda kichik tadbirkorlik sub'yektlarining tashqi savdo aylanmasi 2018 yil yanvar-may oylarida 374,5 mln. AQSh dollarini, shu jumladan eksport 82,7 mln. AQSh dollarini va import 291,8 mln. AQSh dollarini tashkil qildi.






Importda eng katta ulushni, ya'ni 42,9 foizni mashina va asbob-uskunalar importi egallagan. Eksportda esa bu soha 7,9 foizlik natija bilan qayd etildi.

Oziq-ovqat mahsulotlarining eksportdagi ijobiy ko'rsatkichi (49,3 foiz) eksport hajmining deyarli yarmini tashkil etdi.

### **Eksport va importda sohalar ulushlari**

Import tarkibining umumiy hajmidan 42,9 foizini mashina va asbob-uskunalar, 22,4 foizini kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar tashkil qiladi.

Eksport tarkibining umumiy hajmidan 10,3 foizini xizmatlar eksporti tashkil qilib, bunda transport xizmati 49,3 foizni va safarlar xizmati 26,2 foizni tashkil etdi.




2018 yil yanvar-may oylarida tashqi savdo aylanmasi saldosi –299,8 mln. AQSh dollarini tashkil qildi. Shundan MDH davlatlari bilan –60,7 mln. AQSh dollarini va boshqa davlatlar bilan –239,1 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

**2018 yilning yanvar-may oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi quyidagi ma'lumotlarda tavsiflanadi:**



	<i>mln.dollar</i>	<i>o'tgan yilga nisbatan, %</i>	<i>umumiy hajmga nisbatan, %</i>
<b>Eksport</b>	<b>111,3</b>	<b>118,6</b>	<b>100</b>
paxta tolasi	-	-	-
oziq-ovqat mahsulotlari	54,8	104,6	49,3
kimyo mahsulotlari va undan tayyolagan buyumlar	2,2	97,1	2,0
qora va rangli metallar	6,2	3m	5,6
mashina va asbob-uskunalar	8,8	2,3m	7,9
xizmatlar	11,5	117,6	10,3
boshqalar	27,8	121,9	24,9
<b>Import</b>	<b>411,0</b>	<b>136,4</b>	<b>100</b>
oziq-ovqat mahsulotlari	61,4	169,0	14,9
kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	92,0	109,4	22,4
energiya manbaalari va neft mahsulotlari	1,6	127,2	0,4
qora va rangli metallar	40,0	4,5m	9,7
mashina va asbob-uskunalar	176,3	129,7	42,9
xizmatlar	1,3	79,1	0,3
boshqalar	38,4	116,0	9,4

## 2018 yil yanvar-may oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasida eng katta ulushga ega bo'lgan mamlakatlar, foizda

MDH davlatlari orasida Rossiya, Qozog'iston, Ukraina, Qirg'iziston va Tojikiston davlatlari tashqi savdo aylanmasida asosiy hamkorlar hisoblanib, ularning jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 33,5 foizni tashkil qildi. Boshqa davlatlar ulushi esa 65,5 foizni tashkil qilib, ular orasida Xitoy, Turkiya, Koreya Respublikasi, Germaniya, Afg'oniston, Braziliya, Hindiston, Eron, Latviya, Litva, Fransiya, AQSh, Italiya davlatlarini kiritish mumkin.



## Jami eksport-import hajmida eng katta ulushga ega bo'lgan mamlakatlar. (foizda)





Meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksport hajmi 43,9 mln. AQSh dollarini, yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 123,2 foizni tashkil qildi. Meva - sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksport hajmida



42,7 foizni sabzavotlar (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 120,6 foizni tashkil qildi), 21,5 foizni mevalar (110,8 foizni), 29,5 foizni uzum (113,6 foizni) va meva-sabzavot mahsulotlarining umumiy hajmidan 41,7 foizini qayta ishlangan meva va sabzavot mahsulotlari (101,1 foizni) tashkil qildi.

Eksport hajmida asosiy hamkorlar Qozog'iston (umumiy hajmdan 17,5 foiz), Rossiya (14,6 foiz), Vetnam (9,5 foiz), Xitoy (7,2 foiz), Turkiya (12,5 foiz), Belarus(5,8 foiz) va Eron (5,3 foiz) Islom Respublikalari hisoblanadi.

*Meva - sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksport hajmida davlatlar ulushi, foizda*

